

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Thank you to the parties involved in this research, especially to the Chairman of STIAB Smaratungga who has provided financial support in this research. The results of this research are expected to make an active contribution to campus research.

REFERENCES:

1. Afini, V., Suratni, S., Kumalasari, C., Novia, F., & Purwanto, M. B. (2023). Language Learning Approaches: A Study Meta-Analysis of Vocabulary Mastery in EFL Learners. *Journal of Language Development and Linguistics*, 2(2), 111–126. <https://doi.org/10.55927/jldl.v2i2.5805>
2. Agustinasari, E., Simanjuntak, T., & Purwanto, M. B. (2022). A Review on Error Analysis Stages in Teaching English Structure. *Pioneer: Journal of Language and Literature*, 14(1), 253–268. <https://doi.org/10.36841/pioneer.v14i1.1702>
3. Alex., I. N. (2019). *Language In The System of Artificial Intelligence*. 2019
4. International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 1–5. <https://doi.org/10.1109/ICISCT47635.2019.9011949>
5. Alfoudari, A. M., Durugbo, C. M., & Aldhmour, F. M. (2021). Understanding socio-technological challenges of smart classrooms using a systematic review. *Computers & Education*, 173, 104282. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2021.104282>
6. Astirini Swarastuti, Budiyo, B., & M Bambang Purwanto. (2024). Management Of English Learning To Improve Digital-Based Language Literacy Skills. *International Journal of Education, Vocational and Social Science* , 3(01 SE-Articles), 202–215. <https://doi.org/10.99075/ijevss.v3i01.672>
7. Bambang Purwanto, M., & Hidayat, F. (2022). English Learning Strategies for Vocabulary Mastery. *English Education:Journal of English Teaching and Research*, 7(2 SE-), 178–189. <https://doi.org/10.29407/jetar.v7i2.18457>
8. Bonar Siagian, & M Bambang Purwanto. (2023). Lextutor English Learning Pronunciation and Vocabulary: A Language Data Base Program PUSTAKA: *Jurnal Bahasa Dan Pendidikan*, 4(1 SE-Articles), 116–130. <https://doi.org/10.56910/pustaka.v4i1.1062>

JAMIYATDA ILM OLISHDAGI XATOLIKLAR

Komiljanova Zilolaxon Qahramon qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani

43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ilm — insoniyat taraqqiyotining asosiy poydevoridir. Har bir rivojlangan jamiyatning ildizida kuchli ta'lim tizimi va ilmga chanqoqlik yotadi. Biroq, bugungi globallashuv sharoitida nafaqat ilm olish, balki ilmni to'g'ri tushunish va to'g'ri yetkazish ham muammoga aylangan. Afsuski, ilm olish jarayoni ko'p hollarda noto'g'ri yondashuvlar, tizimdagi bo'shliqlar yoki shaxsiy

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

befarqliklar bilan to‘qnash kelmoqda. Ushbu maqolada jamiyatdagi ilm olishdagi keng tarqalgan xatoliklar, ularning sabablari, va bu muammolarni bartaraf etish yo‘llari atroflicha tahlil qilinadi.

Ilm olishning birinchi maktabi – ona

Jamiyatda ko‘pincha qiz bolalar uchun “ertaroq turmushga chiqsa bo‘ldi, uy ishlarini bilsa kifoya” degan qarashlar mavjud. Bunday fikrlar zamonaviy jamiyatda qizlarning ilm olish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Aslida esa har bir jamiyatning kelajagi — onalarning ilmiga bevosita bog‘liq. Ilmli ona farzandiga nafaqat o‘qish, balki hayotga tayyor bo‘lishni o‘rgatadi.

Ilm – faqat lavozim uchun emas, hayot uchun muhim

Bugungi jamiyatda ko‘plab yoshlar ilm olishni faqat yaxshi lavozim egallash yoki testdan o‘tish vositasi sifatida ko‘rishadi. Bunday yondashuv esa ilmning asl mohiyatini so‘ndirib yuboradi. Universitetlarda o‘qish, diplom olish, kursga qatnashish — bularning barchasi ilmga qadam bo‘lishi kerak, ammo o‘rganilgan bilimni amalda sinash esa uning haqiqatda egallanganini ko‘rsatadi.

Jamiyatda amaliy ko‘nikmalar yetishmasligi natijasida ko‘plab yoshlar diplom bilan, ammo real hayotga tayyorlanmagan holda mehnat bozoriga chiqishadi. Bu esa ilm berishda mavjud tizimning o‘zgartirilishini taqozo etadi.

Dunyo tajribasi, xususan Singapur ta‘lim tizimi shuni ko‘rsatadiki, ilm faqat nazariy asoslarda emas, erkinlik, moslashuvchanlik va amaliyot orqali o‘zlashtiriladi. O‘quvchilarga dars vaqtida qisqa dam olishlar, tanlov imkoniyati, faol ishtirok muhitining yaratilishi ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Psixologlar fikricha, bola 45 daqiqa davomida o‘tirib faqat tinglashga majbur bo‘lsa, u tabiiy tarzda charchaydi va o‘quv materialini qabul qilmay qo‘yadi. Shuning uchun o‘quvchilarni faollikka jalb qilish, muammolar ustida o‘ylashga va yechim topishga yo‘naltirish ilmning amaliy qiymatini oshiradi.

Nazariyadan amaliyotga – haqiqiy bilim sari yo‘l

Bizning ta‘lim tizimimizda nazariy bilimlar ustunlik qiladi. Afsuski, ko‘plab darslar testga tayyorgarlik yoki imtihon uchun o‘qitiladi, ammo o‘rganilgan bilim real hayotga tatbiq etilmaydi. O‘quvchilarda esa “Shunchaki o‘qib chiqaman, ishlatishim kerak emas” degan yondashuv shakllanadi. Buning oldini olish uchun har bir fan darsida o‘rganilgan bilimni amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, kichik tajribalar orqali mustahkamlash zarur. Ta‘lim tizimi yoshlarni faqat faktlarni yodlashga emas, balki fikrlashga, muammoni hal qilishga va real hayotga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Sun‘iy intellekt – aql o‘rniga emas, aql bilan birga ishlashi kerak

Zamonaviy yoshlarning aksariyati bilimni chuqur tahlil qilish o‘rniga sun‘iy intellekt va texnologiyalarga ortiqcha tayanmoqda. Ha, ChatGPT, Google, va boshqa sun‘iy intellekt tizimlari tez va qulay javob beradi. Ammo ular aql o‘rnini bosa olmaydi. Asosiy xavf – yoshlar izlanish, o‘ylash, fikrlashdan voz kechib, tayyor javoblarga o‘rganib qolmoqda. Natijada, bilim yodlanmaydi, o‘zlashtirilmaydi — balki shunchaki nusxa sifatida qoladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, TikTok, Instagram, YouTube kabi platformalarda behuda vaqt o‘tkazish ham ilm

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

olishdagi katta to‘siqlardan biridir. Bu nafaqat vaqtini o‘g‘iraydi, balki e‘tiborni bo‘lib yuboradi, intellektual salohiyatni sustlashtiradi. Bu holatga qarshi kurashish uchun yoshlar orasida raqamli gigiyena, ya’ni texnologiyadan foydali foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Yechim – texnologiyani dushman emas, vosita sifatida ko‘rish. Ilm olishda sun’iy intellektdan izlanish, tahlil, tekshirish uchun foydalanish kerak. Har bir yosh o‘z vaqtini rejalashtirib, axborotni saralay oladigan darajaga yetishi kerak. Bu esa faqatgina ongli tarbiya, yaxshi muhit va samarali ta’lim bilan amalga oshadi.

Xulosa

Ilm olish — bu faqat darsga qatnashish emas, balki hayotni anglash, dunyoni tushunish va o‘z yo‘lini topish yo‘lidir. Jamiyatda ilm olishdagi xatoliklar – onalarning yetarli bilimga ega emasligi, yuzaki o‘qitish tizimi, amaliyotga e‘tibor yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi orqali yanada chuqurlashmoqda. Yechim esa — har bir bosqichda ongli, amaliy va individual yondashuvni tanlashda. Ota-onalar, ustozlar, ta’lim tizimi va yoshlarning o‘zi birgalikda bu yo‘lda harakat qilsa, jamiyat ilimli, ongli va faol avlodga ega bo‘ladi. Zero, ilm – bu jamiyat yuragining urishidir. Uning ritmi to‘g‘ri bo‘lsa, hayot ham sog‘lom, barqaror va porloq bo‘ladi.

IJODKORNING BADIY MATNDA SO‘Z TANLASH VA QO‘LLASH MAHORATI

Umirova Zamira Turayevna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

10-umumiy o'rta ta'lim maktabi

2-toifali ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada badiiy matnda “jonli nutq” yaratish uchun ijodkor tomonidan tanlangan so‘zlarning qo‘llanilish me‘yorlari va ularning o‘ziga xos individual uslubi haqida yoritilgan. Badiiy matnda so‘z tanlash va qo‘llash asarning ta’sirchanligini belgilab beruvchi muhim omildir. So‘zlarning semantik va stilistik tomonlarini hisobga olib, ularni to‘g‘ri qo‘llay olish matnning obrazli chiqishini ta’minlab beradi. Maqolada so‘z boyligi, uslubiy moslik, ifoda vositalaridan unumli foydalanish tahlil qilinadi.*

Tayanch so‘zlar: *badiiy mahorat, individual uslub, mahorat, emotsional-ekspressiv so‘zlar, badiiy mahorat.*

Аннотация: *В статье описываются правила употребления слов, выбранных художником для создания «живой речи» в художественном тексте, и их специфический индивидуальный стиль. Выбор и употребление слов в художественном тексте является важным фактором, определяющим эффективность работы. Учет семантической и стилистической стороны слов, умение правильно их использовать обеспечивает*